

DENOV TUMANI GIDRONIMLARI

N.B.Axmedov

*O'zbekiston Milliy Unversiteti magistranti
O'zbekiston Milliy Unversiteti, Toshkent
shahri*

axmedovnasriddin177@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Denov tumanida mavjud bo'lgan gidronimlar va ularning turlari, tarqalgan hududlari, gidronim ma'nolari haqida malumotlar berilgan. O'rganilgan malumotlar asosida gidronimlar jadvali keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Gidronimlar, klasifikatsiya, gidronimlar sxmatikasi, patamonimlar, limnonimlar, glyasionimlar*

***Annotation:** This article provides information about the hydronyms in the Denov district, their types, distribution areas, and the meanings of the hydronyms. Based on the studied data, a table of hydronyms is presented.*

***Keys Words:** Hydronyms, classification, smetics of hydronyms, patamonyms, limnonyms, glasionems.*

Suv bilan bog'liq bo'lgan joy nomlar **gidronimlar** deb ataladi. Okean, dengiz, daryo, ko'l, muzlik, buloq nomlari gidronimlar deyiladi. Gidronimlar ham suvning xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Daryo, ko'l, buloq va quduqlar suvining rangi, sho'rliqi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab har xil bo'ladi. Insonlar o'z dunyo qarashidan kelib chiqqan holda ularga nom beradilar va bu nomlar ularning bir-birlaridan ajratadi. Nom tanlashda ma'lum bir xususiyatlari, belgilari, joylashish o'rni, tabiati, holatidan yoki ma'lum bir ramziy jihatidan kelib chiqiladi. O'z navbatida gidronimlar kichik sinflarga bo'linadi. **Potamonimlar** (yunoncha "potamos"-daryo, "onoma" – nom)- daryo va uning irmoqlari nomlari. Bu sinf toponimlari yer sharidagi eng ko'p nomlardan biridir. **Limnonimlar** (yunoncha- "limno"-ko'l, "onoma"- nom)- gidronimlarning turi, ko'llar, suv omborlari va xovuzlarning nomlari. **Glyasionim**- toponim turi. Muzliklarga beriladigan atoqli nomdir [2].

Mutaxassislar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb hisoblashadi. F.M.Murzayevning yozishicha "gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo'ladi. Shu sababdan, ularni qadimiy shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin". Suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etganligi bois, dunyo aholisining ko'p qismi suv obyektlari bo'yida, sohilda yoki unga yaqin masofada yashaydi [2].

Gidronimlar aholi turar joylariga nom bo'lib o'tganida ular o'rtasida ma'no va vazifa jihatidan ba'zi bir ayirmaliklar yuz beradi. Bunda ikki holatni

inobatga olish kerak. Birinchidan, suv obyektı hozirda mavjud bo‘lsa, u holda bu nom gidronim sifatida tilda keng qo‘llaniladi, uning aholi punktini ifodalashi ikkinchi darajali bo‘lib qoladi. Shunda Qaynarbuloq, Oydinbuloq deganda darhol buloq nomi tushuniladi. Ikkinchidan, nom tarkibidagi suv obyektı hozirda mavjud bo‘lmasa, vaqt o‘tishi bilan, uning oykonimik vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi. Bunday holatlarda nomning gidronimik ma‘nosini emas, oykonimik ma‘nosi yashashni davom etadi.

Denov tumani tog‘li va tog‘oldi mintaqasidagi hudud hisoblanadi. Shuning uchun bu hudud gidronimlarga unchalik ham boy emas. Hududda uchrovchi gidronimlar xalq qarashi sifatida nomoyon bo‘ladi. Xususan tuman hududida respublikamizdagi sersuv daryolardan biri Surxondaryo oqib o‘tadi. Surxondaryo, Sangardak, Qizilsuv daryolar va boshqa bir nechta jilg‘a, buloqlar mavjud. Hududning asosiy iste‘moli mana shu daryolar, jilg‘alar, buloqlar orqali qondiriladi. Bundan tashqari tumanning Bobotog‘ yonbag‘ri hududlarida esa ko‘plab buloqlar, soylar mavjud bo‘lib, ular mahalliy aholi tomonidan turli nomlar bilan atalib kelinadi. Biz hududdi shunga o‘xshash nomlarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Bobotog‘ adirliklarida ko‘plab buloqlar mavjud bo‘lib ulardan birining nomi **Buloqboshi**. Bu buloqlar aholining asosiy suv manbai sanaladi. Shu sababdan bu hududni buloqboshi den nomlashgan.

Duob- tumandagi qishloq. Fors-tojikcha du-ikki, ob- oqar suv, jilg‘a yoki daryoning irmog‘i. Duob- ikki jilg‘a, qishloq shu ikki jilg‘a qo‘shilgan joyda joylashgan. **Duoba** degan qishloq xam bor: ikki suv (daryo, jilg‘a, suv) ning dara ichidan oqib kelib, yoyiq maydonchaga tutashgan joydagi qishloq shunday atalgan. Denov shahridan shimoli-sharqda joylashgan aholi manzilgohi **Minbuloq**. Aholi yashash joyida ko‘plab kichik buloq va jilg‘alar chiqib turadi. Shuning uchun bu yerni **Mingbuloq** deb atashadi.

Xolchiyon aholi punkitidan g‘arbda, Denov shahridan shimoli-sharqda joylashgan soy nomi **Tentak**. Bu hududda erta bahor sel tez-tez sodir bo‘lib turadi.

Sariosiyo va Denov tumanlari hududidan oqib o‘tuvchi daryo nomlaridan biri **Sangardak daryosi**. Yuqorida takidlaganimizdek toshlar orasidagi daradan oquvchi daryo. U Surxondaryoga borib quliladi.

Tumanda Qizilsuv daryosidan yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish maqsadida odamlar tomonidan qazilgan kanalga **Yangiariq** deb atashadi. Ariqning uzunligi 5 kmdan ziyod bo‘lib, u Hazarbog‘ kanaliga borib quyiladi. Ariq tumandagi eng yirik sug‘orish inshootlardan biri sanaladi [6].

Bobotog‘ tizmasidagi, karst yoriqlaridan chiquvchi buloqlardan biri **Oqbuloq**- Suvining tiniqligi va istemol uchun yaroqli bo‘lganligidan mahalliy aholi oqbuloq deb nomlashgan.

Fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “panj”-besh, “ob”-suv degan ma‘noni bildiradigan so‘z **Panjob**. Bu hududda asosan tojik millatiga xos aholi ko‘proq yashaydi. Joy tumandagi Istiqlol mahallasidagi Navobod aholi punkitidagi ko‘cha nomi bo‘lib, aynan shu ko‘chaga kiraverish qismida beshta ariq mavjud. Aynan shu ariqlardan aholi yerlarni sug‘orishda foydalanadi [4].

Surxondaryo viloyatidagibalki, Uzun, Sariosiy va Denov tumanidagi eng katta daryo nomi **Surxondaryo**. Daryo nomining etimologiyasi ham hamon jumboqligicha qolayotir. Tojikcha “Qizil suv” ma‘nosida bo‘lsa, *surxob* deyilishi kerak edi. Surx yoki *surxi* degan turkum urug‘i ham bor. O‘rta asrlarda, Amir Temur tarixida ham **Chag‘onrud** deb atalgan. V.V.Bartold mo‘g‘ul tilida chag‘on “oq” ekanini aytgan (ro‘d-daryo).

Sina qishlog‘ida **Sunbula** deb ataluvchi chashma mavju. Chashma boshqa chashmalardan farqi u qirqquloq o‘simligining barglari orqali tepadan pastga tomchi bo‘lib tushadi. Shu sababdan Sunbula yani tomchi deb qoyilgan.

Sangardak daryosi irmoqlaridan birinng nomi **Obichinor** soyi ham tuman hududida joylashgan. Bu so‘z *obi+chinor* so‘zlaridan xosil bo‘lgan. Tojikchada *ob-suv* degan ma‘noni bildiradi. Agarda biz uni tarjima qilsak suvlichinor deb tarjima qilinadi.

Bobotog‘ etagida dengiz sathidan 1400-1500 metr balandlikda Terak qishlog‘ining yuqori qismida joylashgan buloq **Tombuloq**. Buloqning qishloqning asosiy suv manbai bo‘lib, buloq atrofida yirik xarsangtoshlarni uchratamiz. Bu toshlar orasida 4-5 metr chuqurlikda joylashgan. Xarsangtoshlar qishloqdan bevosita ko‘rinib turganligi uchun buloqni shu nom bilan atashgan.

Tumandagi Yangiro‘zig‘or mahallasida joylashgan buloqlardan biri **Chashmazor** bo‘lib, hududda yer osti suvlari yer ustiga yaqin bo‘lganligi uchun bir qancha kichik chashmalar yer ustiga oqib chiqadi.

1-jadval

Denov tumanidagi gidronimlar

T.R	Gidronim nomi	T.R	Gidronim nomi
1	Buloqboshi	16	Alishirmar
2	Duob	17	Kichikdayo
3	Mingbuloq	18	Quruqsoy
4	Oybuloq	19	Qiziljarsoy

“GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS”

atamasındađı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya

5	Oqsuv	20	Qorasuv
6	Sangardak daryosi	21	Og‘aliksoy
7	Surxondaryo	22	Obinavro‘z
8	Sunbula	23	Obikancharsoy
9	Chashma	24	Obidara
10	Qizilsuv	25	Malangur
11	Yangariq	26	Hazarbog‘
12	Kuyovsuv	27	Xayrabod
13	Obichinor	28	Tombuloq
14	Obigarm	29	Tomchisoy
15	Orol ariq	30	Qorako‘l

Manba: Muallif tomonidan to‘plangan ma‘lumotlar asosida tuzildi

Quyidagi jadvalda ham ko‘rinib turibdiki asosiy etibor suvning xususiyati bilan bog‘liq gidronimlar qolgan turdagi gidronimlarga nisbatan ko‘proqni tashkil etadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Denov tumanida mavjud bo‘lgan gidronimlarning katta qismi tog‘li relyef shakllariga to‘g‘ri keladi. Azaldan bu hududlarni insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan va mahalliy xalq suvning xususiyatidan kelib chiqib ularga nom berishgan. Bugungi kunga kelib bu joy nomlarining aksariyati “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 295-son 16.10.2012 qaroriga binoan o‘rganish ishlarini olib borib, qayta nomlash maqsadga muvofiq. Chunki tuman hududida Yangiariq, Yangikanal singari gidrotoponimlarning takrorlanishini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 295-son Qarori. 16.10.2012
2. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. –T.: “ O‘qituvchi” 2008.
3. Hakimov Q. Toponimika. – T.: “ Mumtoz so‘z” 2016.
4. Nafasov T, Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati.-T.: “ Yangi asr avlodi” 2007.
5. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika-T.: “Navro‘z” 2017.
6. Denov tumani kadastr bo‘limi ma‘lumoti-2021